



**BO'LAJAK TADBIRKORLARDA UMUMAXLOQIY ME'YORLARNI
SHAKLLANTIRISH**

Po'latov Abdulloh Xolxo'jayevich

Namangan davlat texnika universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada tadbirkorlik faoliyatida umumaxloqiy me'yorlar mohiyati va tadbirkorning madaniyat fazilatlari o'rni yoritilgan. SHuningdek, tadbirkor madaniyatini shakllanishidagi mavjud muammolar bayon etilgan. Soha doirasida tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik, umumaxloqiy me'yorlar, tadbirkorlik madaniyati, tadbirkorlik madaniyati fazilatlari, ish joyini tashkillashtirish madaniyati, shaxslararo munosabatdagi madaniyat, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish*

Kirish. Mamlakatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi-kuchli milliy iqtisodiyotni yaratish va shunga asoslangan holda aholi farovonligini oshirib borish hisoblanadi. Bunda zamonaviy bozor mexanizmlari samaradorligini ta'minlovchi muhim omil kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarda ularning faoliyatlarini rivojlantirish, rag'batlantirish va huquq hamda, manfaatlarini himoya qilishni davlat tomonidan kafolatlanganligi alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bu amaliy ishlarni davomiyligini prezidentimizning quyidagi fikrlarida ham ko'rishimiz mumkin: biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur... Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir"! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"[1].

Demak, har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti - tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanishi, kishilarda mulkdorlik madaniyatini shakllantirish, resurslardan tejimli va unumli foydalanish, mamlakat iqtisodiyotini tom ma'noda yuksaltirish, aholida iqtisodiy bilimlar va tafakkurning yuksak darajada rivojlantirish ajdodlar merosi bilan bog'liq.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Iqtisodiyotda tadbirkorlik ulushini oshib borishi – ichki bozorni sifatli va raqobatbardosh tovarlar bilan to'ldirish, zamonaviy xizmatlar ko'rsatish sohasini kengaytirish, raqobatbardosh tovarlar hisobiga eksport hajmini oshirish, aholi va korxonalar daromadlarini ko'paytirishni asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror va doimiy rivojlanishini ta'minlash, xalqning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirishda tadbirkorlik imkoniyatlaridan keng foydalanish lozimligi, eng muhimi ushbu soha kelajakda ham diqqat-e'tibor markazida bo'lishini jamiyatning barcha a'zolariga, eng avvalo talaba yoshlarning ongiga chuqur singdirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, “Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi, bundan buyon ham eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi. Yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularning bandligini ta'minlash maqsadida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi faoliyatini yanada kengaytirish zarur”[1].

Demak, yoshlarga tadbirkorlik bilim va ko'nikmalari berish, malakalarni rivojlantirish pedagoglar zimmasiga shu muhim, dolzarb vazifani bajarishni yuklaydi.

Asosiy qism. Tadbirkor madaniyati deganda tadbirkor odobi va iqtidori o'rtasidagi dialektik bog'liqlik tushuniladi. Odob tadbirkorni eng chiroyli xulq bilan qurollantiradi. Ba'zi hakimlar odobni “eng ma'sum va ko'rkam fe'lga ega bo'lish” desalar, ba'zilari “nafsni barcha qabih odatlardan tozalash” deb ta'rif berishadi.[3]

Shuni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, tadbirkorlik faoliyati tadbirkorlikning nafaqat huquqiy va tashkiliy asoslariga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki, qo'l ostida xizmat qiluvchi mutaxassislar va ishchilar, hamkorlar, biznesmenlar doirasida umumaxloqiy me'yorlarga rioya qilishi bilan ham baholanadi. Tadbirkorlikning ish faoliyatida erishgan yutuqlarining yarmidan ko'prog'i uning odobi, madaniyati, dunyoqarashi, ishbilarmonlik va muomala qoidalarini bilishiga bevosita bog'liqdir[2].

Bu dolzarb masala bevosita iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilib boriladi. Iqtisodiy ta'lim - iqtisodiy tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirib, uning samarasi tadbirkorlik, resurslardan tejimli foydalanish, bank krediti bilan ishlash, soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish, uy xo'jaligini yuritishda hisob-kitob, yangiliklarga intilish va jamiyat iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokida namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlarining jamiyatga jadal tatbiq etilishi, uning asl mohiyatini anglash va ro'yobga chiqarish ham aholida iqtisodiy madaniyatning shakllanganligi va iqtisodiy bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganligiga bog'liq.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib bugungi tadbirkorda quyidagi fazilatlar shakllanishi lozim deb o'ylaymiz.

1-jadval

Tadbirkor madaniyati fazilatlar

№	Fazilatlar	№	Fazilatlar
1	Odob	1	Iste'dod



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



		1	
2	Iymon	1 2	Mehnatsevar
3	E'tiqod	1 3	Tashabbuskor
4	Halol	1 4	Novator
5	Sharm	1 5	Mehribon
6	Oriyatli	1 6	Mard, chidamli
7	Andisha	1 7	Insonparvar
8	Insof	1 8	Vijdonli
9	Adolat	1 9	Samimiylik
10	Iqtidor	2 0	Shaxslararo munosabat madaniyat
21	Ish jarayonlarini tashkillashtirish madaniyati		
1	Fikr almashish madaniyati	7	Tashkilotchilik
2	Tinglash madaniyati	8	Mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish
3	Boshqaruv madaniyati	9	Notiqlik madaniyati
4	Kun tartibini rejalashtirish va tashkil etish madaniyati	10	Tashkilot qadriyatlariga e'tiborlilik
5	Qaror qabul qila olish	11	Atrof-muhitni muhofaza qilish
6	Kommunikatsiya madaniyati	12	Qulay ijtimoiy-ruhiy muhitni tashkillashtirish

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tadbirkor odobi iqtidor bilan bog'liq. Iqtidor o'quvchi yoki talabaning kuch-qudrati yoki biror muammoni hal qilishga qodirligini ifodasi.[4] Yoki, iqtidor – deb insonning o'z xatti-harakatlariga nisbatan sub'ektiv munosabatiga aytiladi. U shaxsning o'z xulqi ekanligiga komil ishonchi qat'iyiligi natijasida namoyon bo'ladi. Biror soha bo'yicha layoqatini ongli ravishda sezgan odam o'zidagi qobiliyatni to'la namoyon qilish uchun qat'iy ko'rsatadi. Iqtidorlilar kuch-quvvatini ayamaydi va kutilgan natijasiga – maqsadiga yetadi, ya'ni o'zini bor bo'yicha ko'rsata oladi, ana shuni iqtidor desa arziydi.





Iqtidorli insonlar ishda mardlik, chidamlik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi xislat va fazilatlarga ega bo'lishadi, o'z xatti harakatlariga xamisha tanqdiy ko'z bilan qaraydilar, doimo olg'a intiladilar, erishgan samaralari bilan hech qachon cheklanib qolmaydilar. Ular o'z faoliyati bilan hatto ba'zi bir kamharakat katta iste'dod egalariga qaraganda ham jamiyatga ko'proq foyda yetkazadilar[5].

Demak, iqtidor ham bo'lajak tadbirkor yoshlarni ijobiy fazilatlarini shakllanishida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fazilatlar tadbirkorlarda to'g'ri shakllanishi maqsadga muvofiqdir. chunki, bugungi kun talaba yoshlari oliy dargohni bitirar ekan, ular dastlabki tadbirkorlik faoliyatlarini olib bormoqdalar. Jumladan, talaba-yoshlar o'z kichik korxonalarini, yakka tadbirkorlik faoliyatlarini tashkil etib, o'z daromadlarini shakllantirib bormoqdalar. Bu jarayonda yoshlar tadbirkorlik malakasini rivojlantirib borishida yuqorida ta'kidlagan fazilatlarni shakllantirishlari kerak bo'ladi.

Talabalar tadbirkorlik qirralarini o'zlashtirib borar ekanlar, eng avvalo o'z ehtiyojlarini qondirish, orzu-havaslariga yetish, kelajakda yuksalib borishlarida o'zlarini mustaqil moddiy ta'minlab borishlarini maqsad qilib qo'yadilar. SHu o'rinda talabalarga o'z maqsadlariga erishishda jamiyat va xalq farovonligi uchun xizmat qilishni asosiy maqsadlari qatoriga qo'shishlari kerak. Ularning mehnat mahsulining provard iste'molchisi bu xalqdir. Demak, xalq va jamiyatni manfaatini ko'zlab ish olib borish vijdonli, mehnatsevar tadbirkorni bosh vazifasi bo'lishi kerak.

Tadqiqotlarimizni ko'rsatishicha, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishga zaruriyat tug'diruvchi muammolar mavjud bo'lib, ularni quyida sanab o'tishimiz mumkin:

- tadbirkorlik faoliyatida yomon xislatlarni, nopoklikni uchrab turishi;
- nafsni yomon odatlarga o'rganib borishi;
- tadbirkorga ishonchni pasayib borishi;
- halollik, to'g'rilik va haqiqatgo'ylikni yo'qolib borishi, adolatsizlikni uchrab turishi;
- iqtidorni pasayishi;
- o'zaro munosabatlarda etik normalarni buzilishi;
- qoniqarsiz ruhiy muhitni shakllanib borishi;
- yangi malaka orttirishga intilishni susayib borishi, faqatgina mo'may pul topish ortidan quvishni sezilarni ko'zga tashlanishi;
- innovatsion g'oyalar, yangiliklarni olib kirishga tashabbuskorlikni yetishmasligi;
- huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi normativlarga rioya etmaslik holatlarini kuzatilishi;
- tadbirkor o'rtasida g'irrom raqobatga yo'l qo'yilishini mavjudligi va shu kabilar[6].

Ushbu muammolar tadbirkorlik malakasini egallashda e'tibordan chetda qoldirmaydigan alohida masala ekanligini ko'rsatmoqda. O'z navbatida bular salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga kiradi.

Bizningcha, tadbirkorlik madaniyatini shakllanishida mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirishni muvofiq deb o'ylaymiz:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



-halol mehnat bilan boylik orttirishni, bu boylik xalqqa va jamiyatga foydali bo'lishi kerakligini singdirish;

-e'tiqodli, fidoyi, lafzli bo'lishga o'rgatish va uni shakllantirish;

-insofli, diyonatli, adolat bilan ish ko'rishga chorlash;

-iqtidori va qobiliyatini doimo tinimsiz mehnat orqali tarbiyalab borish;

-tashabbuskorlik va yangilikka intiluvchanlikni doimiy tadbirkorlik faoliyatida bo'lishini o'rgatish;

-shaxslararo munosabatda etik normalarni bilishi va ularga rioya qilishni singdirish;

-tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy-ruhiy muhitni yaxshi darajada tashkillashtirishga o'rgatish;

-tinglash, notiqlik, fikrlarni yetkaza olish madaniyatini ish o'yinlarini tashkillashtirish orqali o'rgatib borish;

-aniq vaziyatlarni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish;

-vaziyatlarni to'g'ri tahlil qilgan holda mustaqil qaror qabul qila olishni shakllantirish;

-rivojlangan mamlakatlar tajribasidan tadbirkorlik madaniyatidagi alohida ahamiyatli tomonlarni tahlil qilish va munosib tomonlardan samarali foydalanishni o'rgatish;

-ijobiy natijalarni o'rinli motivlashtirish ko'nikma va malakasini shakllantirish.

Yuqoridagi tavsiyalarimiz o'zining ijobiy natijalarini beradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>

2. Umurzaqov U.P., Toshboyev A.J. Kichik biznes va tadbirkorlik. "Sano-standart" nashriyoti. T.:2014. 439-b.

3. Boltaboyev M.P. va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik. "Noshir". T:-2011. 200-b.

4. Джураев З.Х. Педагогик атамалар луғати. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти. Т.: -2008, 32-б.

5. Хасанбоев Ж., Тўракулов Х., Хайдаров М.Э., Хасанбаева О.У.Т.: Фан., 2008. 67-бет.

6. Эргашева Ф.И. Тadbirkorlik faoliyatida umumta'lim me'yorlarining ўрни. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2019 йил 11-сон. –б. 316-321.